
Xayru saxovat yo'lida

Muborak Ramazon oyida ezgu amallar bajariladi, xayr-saxovatli kishilar mehr-muruvvat ko'rsatib, yetim-esir, beva-bechoralar holidan xabar oladilar, o'z xonadonlarida iftorlik qilib, ro'zadorlarni mehmon qiladilar. Albatta, bu ishlar maqtovg'a sazovordir. Sababi hadislarning birida: «Kim bir ro'zadorga iftorlik qilib bersa, unga o'sha ro'zador ega bo'lgan savobdan biron narsa kamaytirilmagan holda beriladi», deyilgan.

"Markaz" MFYda yashovchi tadbirkor Bahromjon Mamadaliyev tomonidan o'z hududida istiqomat qilayotgan kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan va yolg'iz yashab kelayotgan, ehtiyojmand oilalarga go'sht mahsulotlari tarqatildi.

2023-04-04 06:21:08